



THE TRADITIONS AND CULTURAL LIFE OF ANCIENT PEOPLES IN THE WORK "OSOR AL-BOQIYA"

Mehribon Sapayeva¹

Urgench Innovative University

DOI: 10.5281/zenodo.15290459

Article History	Abstract
Received: 10.03.2025 Accepted: 25.04.2025	"Osor al-boqiya" (full title: "Osor al-boqiya an qurun al-xoliya" – "Remnants of Past Generations") is a rare scientific work written in Arabic in 1000 CE and consisting of 25 chapters. In this work, the author scientifically analyzes the life, culture, and beliefs of ancient peoples such as the Persians, Sogdians, Jews, Greeks, Zoroastrians, and others. Special attention is given to systems of timekeeping, clothing culture, and various rituals.

Keywords: leap year, faqihs, Majusis, savofirs, araba, fatir, Mehrjon.

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Master's student at Urgench Innovative University, Urgench, Uzbekistan

“OSOR AL-BOQIYA” ASARIDA QADIMGI XALQLARNING URF-ODATLARI VA MADANIY HAYOT MANZARALARI

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

kabisa, faqihlar, majusiylar, savofir, aroba, fatir, Mehrjon

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

“Osor al-boqiya” (to‘liq nomi: “Osor al-boqiya an qurun al-xoliya” – “O‘tgan asrlardan qolgan yodgorliklar”) asari 1000-yilda arab tilida yozilgan bo‘lib, 25 bobdan iborat nodir ilmiy merosdir. Muallifning ushbu asarida forslar, so‘g‘dlar, yahudiylar, yunonlar, zardushtiylar va boshqa qadimgi xalqlarning hayoti, madaniyati hamda e‘tiqodini ilmiy asosda tahlil qilib bergan. Unda yil hisoblash tizimlari, kiyinish madaniyati va turli marosimlarga alohida e‘tibor qaratilgan.

Beruniy “**Osor al-boqiya**” asarida turli xalqlarning diniy bayramlari, yil hisoblash tizimlari, xalqona urf-odatlar, kiyinish madaniyati va marosimlariga alohida e‘tibor qaratgan.

Forslarning urf-odatlar va an‘analari

Beruniy forslar haqida yozar ekan, ularning zardushtiylik diniga e‘tiqod qilganliklarini, diniy marosimlarda olovga sig‘inish muhim o‘rin tutganini alohida ta‘kidlaydi. Forslar yillarini kabisa bilan hisoblab, to‘rt faslni oylar orqali bilganlar. Chunki fasllar bilan oylar orasidagi holat bir-biriga yaqin edi: **Farvardin moh — yoz boshi, Tir moh — kuz boshi, Mehr moh — qish boshi, Day moh — bahor boshi** bo‘lgan. Ularning oylari ichida to‘rt faslga qarab belgilanadigan bayram kunlari bo‘lgan. Kabisa bekor qilingach, u bayramlarning vaqti o‘zgargan.

Bu bayram kunlarining ba‘zilari dunyoviy, ba‘zilari esa diniy maqsadlar uchun belgilangan. Dunyoviy bayramlar muqaddas kunlar bo‘lib, podshohlar va raislar shu kunlarda marosimlar o‘tkazgan, nafslarini sevintirib, ruhlarni shodlantirgan va xalq muhabbatini qozonganlar. Ular oddiy xalq uchun ham turli marosimlar joriy qilganlar. Oddiy xalq bu marosimlarda ishtirok etib, podshoh va amirlarning quvonchlariga hamdardlik bildirganlar.

Bu bayramlar faqirlar hayotidagi tanglikni kenglikka aylantiruvchi, umidvorlarning orzularini ro‘yobga chiqaruvchi va musibatga uchraganlarni xavf-xatar va kulfatdan xalos etuvchi vositalardan biri bo‘lgan. Podshoh va amirlar baraka, baxt va yaxshilikka erishish yo‘lida avvalgilari tajribasidan foydalanib, bu marosimlar uchun yo‘l-yo‘riqlar tuzganlar.

Forslarning diniy bayramlarini shariat arboblari, imomlari, faqihlari va dindorlari belgilagan. Forslar har bir oyda bayramlar nishonlaganlar.

Farvardin moh-bu oyning birinchi kuni Navro‘z sanasi bo‘lib, yangi yilning boshlanishi sanalgan. “Navro‘z” so‘zi “yangi kun” degan ma‘noni bildiradi. Farvardin mohning oltinchi kuni – Ro‘zi Hurdod – katta Navro‘z forslarda ulug‘ bayram sifatida nishonlangan.

Aytishlaricha, shu kunning tongida bir so‘z aytishdan oldin shakar totib, o‘ziga zaytun yog‘i surtgan kishidan yilda turli balolar daf etiladi, deganlar. Odamlar bu davrda novdalar

ko'karganini "ro'zi nav" — "yangi kun" deb ataganlar. Baraka tilab, tos yoki boshqa idishlarga arpa ekish odati bo'lgan. Saroy atrofida etti xil dondan ekish rasm bo'lib, donlarning unishiga qarab yilgi hosil bashorat qilingan.

Asarda yana aytilishicha, Jamshid — Eronning afsonaviy podshohi — anhorlar qazishga buyurgan va aynan shu kuni anhorlarga suv yuborilgan. Serobgarchilik bashorati sabab odamlar cho'milganlar. Keyinchalik bu urf davom ettirilgan. Boshqa rivoyatga ko'ra, bu kun suv farishtasi Haruzoga tegishli bo'lib, tongda odamlar anhor va hovuzlarga borib, suv olib, ustlariga quyganlar. Bu odat ofatlarni daf etish maqsadida bajarilgan. Suv sepish odati ham cho'milish bilan bog'liq bo'lib, suv tanani olov va tutun izlaridan poklaydi, havodagi vabo va kasalliklarni yo'qotadi.

Farvardin mohning barcha kunlari bayram sifatida qismga ajratilgan:

- ✓ birinchi besh kun — podshohlar uchun,
- ✓ keyingisi — ulug' kishilar uchun,
- ✓ uchinchi — podshohlarning g'ulomlari uchun,
- ✓ to'rtinchi — xizmatkorlar uchun,
- ✓ beshinchi — shahar aholisi uchun,
- ✓ oltinchi — cho'ponlar uchun.

So'g'dlarning bayramlari

So'g'dlarning oylarida ham ko'plab bayramlar va qutlug' sanalar mavjud bo'lgan.

- **Navsard** — yozning birinchi kuni, katta Navro'z.
- **Romush Og'om** — Navsard oyining 28-kuni. Romiton qishlog'idagi otashxonaga to'planib nishonlangan.
- **Sama Xvora** — Basok oyining 15-kuni, bu kunda ovqat, ichimlik va olov tekkan narsalarni tark etib, meva va sabzavot iste'mol qilingan.
- **Miniyd Xvora** — Fag'akon oyining 2-kuni, otashxonalarda tariq uni, yog' va shakar aralashmasidan ovqat tayyorlab iste'mol qilingan.
- **Xashivam** oyining oxirida ajdodlarni yod etish marosimi o'tkazilgan.

Xorazmliklarning bayramlari

Xorazmliklarning bayram kunlari forslarnikidan farq qilib, so'g'dlarnikiga o'xshash bo'lgan. Ular ham Navsarji — yoz boshi — ni yil boshiga aylantirganlar.

- ✓ **Arijosuvan** — Hrvdad oyining birinchi kuni, "odamlar kiyimdan chiqadi" degan ma'noni bildirgan.
- ✓ **Fag'arbarix** — Axshivari oyining birinchi kuni, "shohning chiqish vaqti" bo'lib, sovuq boshlanishi bilan podshohlar o'z hududlarini himoya qilganlar.
- ✓ **Azdokand Xvar** — Avmri oyining birinchi kuni, "yog'li non yeyish kuni". Odamlar olov yoqib, uyda to'planib non iste'mol qilganlar.
- ✓ Mehrjon — oyning 13-kunida nishonlangan
- ✓ Xorazmliklar tutatmalar, isiriq orqali yomon ruhlarni daf etganlar. Bu odatlar hozirgacha saqlanib qolgan.

Yahudiylar haqida

Beruniy yahudiylarning diniy taqvimini, ro'za va bayram kunlari haqida yozadi. U Bibliyadagi asoslarga tayanadi va sanalarni aniqlashda astronomik hisob-kitoblardan foydalanadi. Yahudiylar yilni oyning fazalariga qarab belgilaganlar.

- **Tishriy** oyining birinchi kuni — yil boshi bayrami, bu kunda karnay va savfir chalinadi.
- **Tishriy 15-kuni** — "Chaylalar bayrami", yetti kun davom etgan. Daraxt shohlaridan chaylalar qurilgan.
- **Kislev** oyining 25-kuni — "Xanukka bayrami", sakkiz kun davom etgan. Har kechada chiroqlar yoqilgan.
- Ro'za kunlari ketma-ket kelmagan.
- **Mazol bayrami** — soyali joylarda turish, dam olish haqida Tavrotda yozilgan.
- **Aroba bayrami** — odamlar igna, limon, tol shoxlarini olib maxsus joylarda tavof qilishgan.
- **Yig'ilish bayrami (Itsart)** — bayramlarning tugash marosimi.
- **Nison** oyining 1-kuni — Horunning o'g'illari Nodob va Abihular o'lgani uchun ro'za.
- 15-kuni — **Pasxa bayrami**, bu fatir yeyiladigan kunlarning boshlanishi hisoblangan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Beruniy mazkur xalqlarning madaniyatiga chuqur hurmat bilan yondashgan. U ularni baholamagan, balki hayot tarzini ilmiy asosda izohlashga harakat qilgan. Bu esa uning zamonaviy fan talablariga mos ob'ektiv yondashuvini ko'rsatadi. "*Osor al-boqiya*" — shunchaki tarixiy asar emas, balki ko'p millatli, ko'p madaniyatli dunyo uchun muhim ilmiy ensiklopediyadir. Abu Rayhon Beruniyning xalq madaniyatlariga hurmati, betarafligi va chuqur ilmiy yondashuvi bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Ushbu asar xalqlar madaniyatini tushunishda, ularning o'zaro aloqalari va bag'rikenglik tamoyillarini ilgari surishda bebaho manbadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Беруний Абу Райхон. Остатки былых поколений (Ал-осор аль-бакия ан аль-курун аль-халия) / Пер. с араб. – Ташкент: Фан, 1968. – 500 с.
2. Вохидов Ш. Беруний мероси ва замонавий фан. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001. – 276 б.
3. Зиё Х. Беруний ва Шарқ халқлари тақвим тизимлари. – Самарқанд, 1996. – 198 б.
4. Қаяумов А. Абу Райхон Беруний: Ҳайоти ва илмий мероси. – Тошкент: Фан, 1982. – 245 б.
5. *Encyclopaedia Iranica* [Elektron manba]. – Rejim kirish: <https://iranicaonline.org> (sana: 2025.04.16).
6. Ўзбекистон тарихи энциклопедияси. 5 жилдлик. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2000–2005.